



Zarrina NABIYEVA,
SamDCHTI dotsenti v.b., PhD
E-mail: zarrinanabiyeva.1990@gmail.com

SamDCHTI dotsenti, PhD M.Oblokulova taqrizi asosida

IJTIMOY MUNOSABAT FE'LLARINING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi ijtimoiy munosabat fe’llarining struktur-semantik xususiyatlari qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o‘rganilgan. Unda asosan fe’llarning morfologik tuzilishi, sintaktik funksiyalari hamda semantik toifalarini tahlil qilish orqali ular orqali ifodalanadigan ijtimoiy munosabatlar — hurmat, itoatkorlik, buyruq, murojaat, minnatdorchilik kabi nutq aktlarini ifodalashdagi o‘xshash va farqli jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada ijtimoiy kontekstda fe’llarning ma’no doirasiga ta’siri, har ikki tildagi milliy-madaniy omillar bilan bog‘liqligi ham ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijalari tarjima nazariyasi, pragmalingvistika va til o‘qitish jarayonlari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Sintaktik-semantik tahlil, mayl va zamon kategoriyasi, struktur-semantik jarayon, ijtimoiy munosabat fe’llarining leksik-semantik guruhlari.

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГЛАГОЛОВ СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация

В данной статье структурно-семантические особенности глаголов социальных отношений в английском и узбекском языках изучены на основе сравнительно-аналитического подхода. В нем освещаются сходства и различия в выражении речевых актов – уважения, послушания, приказа, обращения, благодарности-в основном через анализ морфологической структуры, синтаксических функций и семантических категорий глаголов. В статье также показано влияние глаголов в социальном контексте на диапазон значений, связанное с национально-культурными факторами в обоих языках. Результаты исследования имеют практическое значение для теории перевода, прагмалингвистики и процессов языкового обучения.

Ключевые слова: Синтаксико-семантический анализ, категория склонения и времени, структурно-семантический процесс, лексико-семантические группы глаголов социальных отношений.

STRUCTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF SOCIAL-RELATIONSHIP VERBS (BASED ON THE EXAMPLES OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)

Annotation

In this article, the structural and semantic features of verbs of social relations in English and Uzbek are studied on the basis of a comparative analytical approach. It highlights the similarities and differences in the expression of speech acts - respect, obedience, command, address, gratitude-mainly through the analysis of morphological structure, syntactic functions and semantic categories of verbs. The article also shows the influence of verbs in a social context on the range of meanings associated with national and cultural factors in both languages. The research results have practical implications for translation theory, pragmalinguistics, and language learning processes.

Key words: Syntactic and semantic analysis, category of declension and tense, structural and semantic process, lexical and semantic groups of verbs of social relations.

Kirish. Har qanday tilda ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi vositalar alohida ahamiyat kasb etadi. Shaxslararo munosabatlarning ifodalanishi, ularning mazmunan to‘g‘ri yetkazilishi til vositalari, xususan, fe’llar orqali amalga oshiriladi. Fe’llar inson faoliyatining harakatga asoslangan jihatlarni bildiruvchi asosiy so‘z turkumi sifatida nafaqat grammatik vazifalarni, balki ma’no yukining asosiy qismini ham o‘zida mujassam etadi. Ayniqsa, ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi fe’llar insonlar o‘rtasidagi muomala madaniyatini, hurmat, ehtirom, buyruq, taklif, rad etish, iltimos kabi ijtimoiy-situatsion nutq aktlarini to‘g‘ri anglash va yetkazishda muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida ijtimoiy munosabatni ifodalovchi fe’llarning struktur-semantik xususiyatlari o‘rganiladi. Har ikki tildagi fe’llarning grammatik

va semantik tuzilmalari taqqoslanadi, ularning kommunikativ funksiyalari yoritiladi. Tadqiqot, shuningdek, tilshunoslikda pragmalingvistika va madaniyatlararo kommunikatsiya nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Strukturaviy-sintaktik tasnifga ko‘ra, fe’llar o‘timli / o‘timsiz, refleksiv / refleksiv bo‘lmagan kabi turlarga bo‘linadi. Jumladan, ijtimoiy munosabat guruhi fe’llari mazkur kategorial ko‘rsatkichlarga ega.

Funksional-semantik xususiyatga ko‘ra fe’llar voqe‘likni, voqea-hodisalar kechimi, munosabatlar xususiyatini anglatuvchi turlariga ega bo‘ladi.

Ijtimoiy munosabat fe’llarining konseptual maqomi esa inson va atrof-muhit, inson va jamiyat aloqadorligini belgilash kiradi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.

A.A.Ufimsevaning fikriga ko'ra, fe'lining semantikasini o'rganishda yuzaga keladigan obyektiv qiyinchiliklar uning mantiqiy-obyektiv mazmunining tabiatida yotadi [1].

Fe'ning o'ziga xos ma'nosi leksik jihatdan ochib berilishi mumkin, ya'ni nafaqat u bilan birikkan so'zlarning semantikasiga, balki sintaktik jihatdan ham (obyektning strukturaviy tipi, predmeti, model xarakteri) bog'liq. Ijtimoiy munosabat fe'lining konseptual asosi ijtimoiy hodisalar, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yorituvchi harakatlarida ko'zga tashlanadi. Bu bevosita voqeliklarni idrok qilish orqali amalga oshiriladi.

Idrok qilish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

idrok qilinadigan sohada obyektning aniqlash;
obyektning belgilari va xususiyatlarini farqlash;
ajratib ko'rsatilgan belgilarni sintez qilish [2].

Ijtimoiy munosabat harakatining mavjudlik belgisi obyekt muayyan harakatlarni bajaradigan faol subyektning (agentni) va ushbu jarayonga mos keladigan fe'l bilan ifodalangan harakatning o'zi dinamikligini namoyon qilishda kuzatiladi.

Fe'llarni LSG ning obyekt bo'yicha tilshunoslik uchun tilni tizimli tashkil etish va uning leksik-semantik masalalarini, shu guruhga oid leksik guruhlarni o'zaro ta'siri, ularni yagona mikrotizimning funksional va kognitiv faoliyatini verbal ifodalovchisi ekanligidan dalolat beradi [3]. Boshqa tomondan esa, ularning o'zlar guruhning tabiati va tarkibiy tuzilishi bo'yicha ko'plab munozarali nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda ularga yangicha qarashni, qiyosiy-tipologik jihatdan taqqoslash, kognitiv mezonlar doirasida qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

So'zlarning leksik-semantik guruhlarga bo'linishi lingvistik tadqiqotning nihoyatda murakkab, ko'p qirrali obyektidir.

Ularni nafaqat leksik-semantik guruh sifatida tadqiq etish, balki butun tilning tizim strukturasi ideal modeli bo'lib xizmat qila oladi. LSG olamni lingvistik modellashtirishda faol ishtirok etadi va shuning uchun "tildan tashqari borliq – belgi – ma'no – matn – shaxs" funksional bog'liqligini aks ettiradi, ya'ni tilning ekstralingvistik voqelik va tafakkur bilan bog'lanishini paradigmatik, sintagmatik va epidigmatik bo'yicha tashkil topishini ta'minlaydi [4].

Ijtimoiy-munosabat fe'llarining leksik ma'nosi, tuzilishi ularning semantikasini boyitish imkoniyatini aniqlashda, xususan, muloqotda mazkur guruh fe'llarni maqsadli harakatni nomlaganligi tufayli, "og'zaki nutqni faollashtiruvchi" alohida leksik semasini taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Fe'llardan foydalanish semantika rivojlanishining sintagmatik asosini va haqiqiy nominativ hosila salohiyatini ham belgilab beradi. Masalan, har bir tilda nutqda to'g'ridan-to'g'ri nutq qurilishi bilan birgalikda fe'l mazmunan boyib boradi, ammo har bir tilning leksik-semantik imkoniyatlari tufayli ulardagi kategoriyalar ko'rsatkichlarda farqlar kuzatilishi mumkin.

Muhokama va natijalar. Tilshunoslikda ijtimoiy munosabat fe'llarining leksik-semantik, semantik-grammatik xususiyatiga asoslangan tasniflari mavjud.

Leksik-semantik tasnifga ko'ra, ijtimoiy munosabat fe'llari quyidagi sinflarga bo'linadi:

predikativ fe'llar (kauzativ, modal, aspektual, temporal, taksisli, fazali);

modus (nutq, fikr, xotira, bilim, his-tuyg'ular, hislar, tasavvurlar, idrok, baholovchi).

Modus fe'llari shaxsning og'zaki va aqliy faoliyatini aks ettiruvchi vaziyatlarni bildiradi.

Fe'llar an'anaviy tarzda harakat va holat fe'llariga va aspekt nuqtai nazaridan aksional (chegaralangan/chegaralanmagan) kategoriyalarga bo'linadi. Aksional (harakatni yakuniga yetgan/yetmaganligini ifodalaydi) fe'llar vaziyatni bildiruvchi dinamik fe'llarga xos xususiyat sanaladi. Ijtimoiy munosabatni tashkil qiluvchi jarayon va hodisalarni bildiruvchi dinamik fe'llar guruhlariga tegishlidir. Ijtimoiy munosabat fe'llari obyektga va subyektning harakatini bildiruvchi, semantik jihatdan o'timli fe'llar sanaladi. Masalan,

"I know that these gratifying social ends were so invariably accomplished", that Herbert and I understood nothing else to be referred to in the first standing toast of the society: which ran "Gentlemen, may the present promotion of good feeling ever reign predominant among the Finches of the Grove". [6]

"So, in my case; all the work, near and afar, that tended to the end, had been accomplished; and in an instant the blow was struck, and the roof of my stronghold dropped upon me". [6]

Yuqoridagi tahlil natijasi jarayonida shuni ko'rish mumkinki, har ikkala gapda ijtimoiy munosabat ma'nosini beruvchi social ends were so invariably accomplished, all the work had been accomplished birikmalari voqe'likka munosabat ma'nosini bermoqda.

As soon as I saw this object I knew it would defeat me. I was sure I would never be able to get it open. [5]

I kept repeating that it would have been bliss to sleep with her for forty years, that it would have defeated death, and so on. But could I really have borne it? The fact was that I became more and more fastidious as I grew older. [5]

What follows has another (and I hope more disinterested) purpose. In humouring my mistake, "Miss Havisham, you punished – practised on – perhaps you will supply whatever term expresses your intention, without offence – your self-seeking relations"? [6]

Berilgan gaplarda to defeat, to punish ijtimoiy munosabat fe'llari orqali ifodalangan object would defeat me, it would have defeated death, you punished – practised on – perhaps you will supply whatever term expresses your intention birikmalari har bir gap mazmunidan kelib chiqqan holda, shaxs hamda obyektga nisbatan ijtimoiy munosabat tushunchasini beryapti.

Ijtimoiy munosabatni ifodalovchi fe'llarning semantik sinfiga mansub qarama-qarshi fe'llar ikkita qarama-qarshilik va ziddiyat predikatini o'z ichiga olgan propozitsiyani ifodalaydi. Fe'ning ma'nosiga prosessual yondashish LSG tarkibidagi qarama-qarshilik fe'llari tomonidan ko'rsatilgan vaziyatni bir nechta propozitsiyalardan iborat ssenariy sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Misol uchun,

O'sh va O'zgan xalqi ham Tanbalga qarshi isyon ko'tarib, Boburga ko'mak yubordi. To'rt tomonidan o't ketgan Tanbal tezroq Andijon qo'rg'oniga qaytib borib jon saqlamoqchi bo'ldi [8].

"Bir qinga ikki qilich sig'magay, musulmon olamiga yo men rahbar bo'lishim kerak yoki Shoh Ismoil!" Shayboniyxon shu e'tiqod asosida Shoh Ismoil bilan bultur astoydil bellashmoqchi bo'ldi. Hirotdan ellik ming qo'shin bilan Eronning Kermon va Gurgon shaharlarigacha bostirib bordi [8].

Misoldagi presuppozitiv qism ishtirokchilari "isyon ko'tarmoq", "ko'mak yubormoq" o'rtasidagi ziddiyat ko'rinishini o'z ichiga oladi. Ssenariyning asosiy qismida maqsadni qandaydir tarzda hal qilishga qaratilgan kontragentlarning ziddiyatlari tushuntiriladi. O'xshash vaziyatni ingliz tili misolida ko'rib chiqamiz. Misol uchun,

The prairie zephyrs fanned him mildly; mocking-birds at morn and eve comepeted with, but scarce equalled, the sweet

melodies of his lyre; a perfumed stillness seemed to fill all his world. While old man Ellison was pottering among his flocks of sheep on his mile-an-hour pony, and while the Kiowa took his siesta in the burning sunshine at the end of the kitchen, Sam would lie on his cot thinking what a happy world he lived in, and how kind it is to the ones whose mission in life it is to give entertainment and pleasure. [7]

(compete- raqobatlashmoq – kimdir yoki biror narsa (kontragent) bilan raqobatlashish (asosiy predikat), kurashda ishtirok etish (shu jumladan predikat-usul), ishlab chiqaruvchilar (kontragent) o'rtasida tovarlarni ishlab chiqarish (maqsad), sotish va tovar ishlab chiqarishda eng katta foyda olish uchun qulayroq shart-sharoitlarni ta'minlash uchun (maqsad semantikasi bilan predikatlar kiritilgan) [9].

Xulosa. Ijtimoiy munosabat fe'llarining sintaktik tarkibi, ularning derivativlik imkoniyatiga bog'liqligi aniqlandi. Xususan, ingliz tilidagi ijtimoiy munosabat

fe'llarning struktur-sintaktik shakllanishi ko'pchilik hollarda ularga birikadigan so'zlar (adverblar, ravishlar) ga bog'liq. O'zbek tilida esa ma'no ko'lami kengayishi yoki ijtimoiy munosabatni ko'rinishini belgilashda ko'makchi fe'llar, mayl va zamonga tegishli qo'shimchalarning faollashuvi kuzatildi. Usbu guruh fe'llarning sintaktik funksiyalarini ularning gapdagi vazifalari (asosiy predikat/ ikkilamchi predikat)ga qarab belgilandi.

Mazkur turkumga tegishli fe'llar ijtimoiy munosabatlarning turli ko'rinishlari, shu bilan bog'liq voqeliklarni tilda ifodalanishini ta'minlovchi muhim lisoniy vosita sifatida baholaydi. Ijtimoiy munosabat fe'llari semantik jihatdan fe'llarning konnotatsiyalari hamda madaniy xususiyatlarni qamrab oladi. Bunda ijtimoiy munosabat fe'llari, nafaqat tilning sintaktik tarkibi, balki ularning ma'no va kontekstda ishlatilishi, ma'lum ijtimoiy identifikatsiya va kommunikativ vazifalarini bajarish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Уфимцева А.А. Лексическое значение // Принципы семиологического описания лексики. – М., 1986. – С. 54.
2. Арнхайм Р. Визуальное мышление. Беркли, 1969. – С. 86.
3. Апресян Ю. Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. – Москва, 1974. – С. 367.
4. Бабенко Л. Г. Глагол в системе языка и речевой деятельности: материалы научной лингвистической конференции. Ральский гос. унив., 1990. – С. 157.
5. Bellow Saul. Humboldt's gift. The Viking Press, Inc. 625 Madison Avenue, New York, N.Y. 1975. – 246 p.
6. Charles Dickens. Great expectations. Penguin Group: Penguin Books Ltd, 80 Strand, London WC2R 0RL, England. 1860. – 483 p.
7. O. Henry "100 Selected stories" Wordsworth Editions Limited Cumberland House, Crib Street, Ware, Hertfordshire 1995. – 750 p.
8. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent, 2002. – 165 b.
9. Ramchand G. Verb meaning and the Lexicon. Cambridge, 2009. – P. 38–62.